




№3
2024



O'ZBEKISTAN MAMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NOKIS FILIALI

MUSIQ VA SAN'AT AJOBO KUTUBXONASI | БЕЎТХИҚ ХУЗУРҚИ И ҚОЎҚУТБА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMY - METODIKALÍQ JURNAL



**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI**

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ**

Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 3/2024

O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI

Sobirjonov A.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek opera san’atiga va milliy qo‘shiqchiligiga hissa qo‘shgan inson O‘zbekiston xalq artisti ustoz san’atkor Ergash Yo‘ldoshev haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: Teatr, opera, qo‘shiq, filarmoniya, musiqa, san’at, vokal.

Аннотация: Статья посвящена народному артисту Узбекистана Эргашу Юлдашеву, внесшему вклад в искусство узбекской оперы и национального пения.

Ключевые слова: Театр, опера, филармония, музыка, искусство, вокал.

Annotation: The article is dedicated to the People’s Artist of Uzbekistan Ergash Yuldashev, who contributed to the art of Uzbek opera and national singing.

Key words: Theater, opera, philharmonic, music, art, vocals.

O‘zbekiston xalq artisti, Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri Opera xonandasi Ergash Yo‘ldoshev 1924-yili 1-mayda Namangan viloyati Chust tumanida tavallud topgan. Ergash Yo‘ldoshev yoshligidan xalq kuy va qushtlari, ashula va yallalarini aytishga qiziqadi va ilk o‘zbek an’anaviy qo‘shiqchilik uslublarini Mamurjon Uzoqovdan o‘rganishni boshlaydi.

Ergash Yo‘ldoshev daslabki ijodiy faoliyatini 1939-yillarida Chust tumanidagi kolxoz va savxoz teatrlarida boshlagan. Bu davrlar katta Farg’ona kanalining qazilish yillariga to‘g‘ri kelganligi sababli qazish ishlariga qatnashgan mehnatkash xalqning kayfiyatini ko‘tarishga o‘z hissalarini qushgan. Kanal qazilishida O‘zbekiston xalq artistlari Xalima Nosirova, Tamaraxonim kabi san’atkorlar o‘zlarining truppalari bilan ishlayotgan hasharchilarga tomoshalar qo‘yishgan va o‘sha joyda Ergash Yo‘ldashevni havaskor qo‘shiqchi sifatida o‘rtaga taklif qilishgan va ijro tomoshabinlarga manzur kelgan.

1941-yili ikkinchi jahon urishi boshlangach urushga safarbarlik boshlangan. Ularni qatorida Ergash Yoʻldoshev ham boʻlgan, biroq, oʻsha yillari Oʻzbekiston SSR Oliy soveti Prezidiumi raisi Yoʻldosh Oxunboboyevning qarori bilan Respublikadagi sanʼatkorlarni urushga joʻnatmay Respublikaning turli xil hududlariga ishga joylangan va shularning orasida Ergash Yoʻldoshev ham 1942-yildan boshlab Toshkentda Yangiyoʻl teatrida ishlay boshlaydi, ishlab yurgan yillari koʻplab musiqali drammalarda roʻllarni ijro etadi va koʻplab sanʼatkorlar bilan tanishadi.

1945-yili Toshsovet teatrida faoliyatini davom ettirgan oʻsha yillari “Toʻylar muborak”, “Ey sarvi ravon”, “Dutorim”, “Oʻzbekistondan”, “Shabbodalar” kabi qoʻshiqlarni ijro etgan va shu qoʻshiqlarning birinchi ijrochisi hisoblanadi. Bu qoʻshiqlar oltin meʼrosimizdan oʻrin olgan.

Ergash Yoʻldoshev Oʻzbekiston davlat filarmoniyasida 1948-1958 yillarda ijod qiladi va oʻz ijodi davomida Komuna Ismoilova va Berta Davidova kabi mumtoz qoʻshiqchilik dargʻalari bilan bir saxnada faoliyat yuritib boradi. Ayniqsa Komuna Ismoilova bilan birgalikda aytilgan “Toʻylar muborak” qoʻshigʻi xalq orasida juda mashhur boʻlib ketadi. Chiroyli drammatik tenor ovoz sohibi va mohirona ijrochi boʻlganligi uchun 1952-1958 yillarda Oʻzbekiston davlat konservatoriyasining “Akademik xoandalik va opera tayyorlovi” boʻlimida Izrailyan qoʻlida tahsil oladi.

Oʻqib yurgan yillari oʻzbek va jahon operalarini ustozidan maxir bilan oʻrgangan. 1958-yili konservatoriyaning tamomlagach Navoiy nomidagi Oʻzbekiston davlat akademik katta teatriga ishga taklif qilinadi va oʻz faoliyatini opera xonandasi sifatida davom ettira boshlaydi. Faoliyati davomida koʻplab opera solistlari xususan, Karim Zokirov, Xalima Nosirova, Sattor Yarashev, Saodat Qobulova, Sason Benyaminovlar bilan bir saxnada ijod qilishgan. Ijodi davomida nafasi keng va baland pardalarni moxirona egallaganligi uchun koʻplab musiqali drama va operalarda bosh roʻllarni ijro etgan. Musiqali dramalardan Toʻxtasin Jalilovning “Tohir va Zuxra” da Qodir, “Oftobxon”da Norboʻta, Yunus

Rajabiyning “Muqanna”da G’irdak va boshqa obrazlarni yaratgan. Operalardan Tolibjon Sodiqov, Yunus Rajabiy, Doni Zokirov, Boris Zeydmanning “Zaynab va Omon” operasida Omon, Sulaymon Yudakovning “Maysaraning ishi” operasida Cho‘pon, Matniyoz Yusupovning “Xorazm qo‘shig‘i” operasida Niyoz, Muxtor Ashrafiyning “Dilorom” operasida Moniy, Tolibjon Sodiqov va Reyngold Glierning “Gulsara” operasida Qodir kabi obrazlarni moxironalik bilan gavdalandirgan va 1974-yili O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan. 1982-1988 yillar oralig‘ida Toshkent teatr va rassomchilik institutida dars bera boshlaydi va Dexqonboy Xusanov kabi ko‘plab shogirdlarni tarbiyalagan. Ergash Yo‘ldoshev ijro etgan ko‘plab qo‘shiqlar o‘zbek va rus filmlariga qo‘shiq sifatida olingan va uning repertuaridan maqom yo‘llaridan “Dugoh” “Bayot” katta ashula va xalq ashulalaridan “Tanovar”, “Zor etding” va o‘zbek bastakorlarining qo‘shiqlari o‘rin olgan. O‘zbek opera va qo‘shiqchiligiga katta hissa qo‘shgan san’atkor O‘zbekiston xalq artisti Ergash Yo‘ldoshev 1991-yili 67 yoshida Toshkentda vafot etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Charshemov J. Karakalpak bakhshis and schools of bakhshi art //Teoretical and Applied Science (ISSN: 2409-0085). – 2023. – T. 118. – C. 178-180.
2. Jamil Charshemov. (2024). PROCESSES OF REALIZATION OF KARAKALPAK FOLKLORE IN SYMPHONIC MUSIC OF 30-80 YEARS OF XX- CENTURY. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(1), 33–36.
3. PROCESSES OF REALIZATION OF KARAKALPAK FOLKLORE IN SYMPHONIC MUSIC OF 1990-2010 OF XX-XXI CENTURY. (2024). Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 2(1), 37-41.

4. Алланиязов Б. ЛЮДИ ИСКУССТВА (КОМПОЗИТОР, ДИРИЖЁР И ПЕДАГОГ) //Гуманітарний простір науки: досвід та перспективи. – 2018. – С. 72.
5. Madrimova, T., & Kamalova, G. (2024). TEACHERS ARE DEAR Modern Science and Research, 3(1).
6. Segizbaeva, G., & Kamalova, G. (2024). J.CHARSHEMOVTIŇ DÓRETIWSHILIGINDE SAHNA HÁM KINO MUZIKASI. Modern Science and Research, 3(1), 289–294.
7. Dauletyarova, G., & Kamalova, G. (2024). A LOOK AT THE WORK OF TEACHER POLATBAY QURBANAZAROV. Modern Science and Research, 3(1), 283–288.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Allanbaev R.O. QOSÍQSHÍLIQTÍN BÚGINGI KÜNDEGI ÁHMIYETI.....	3
2	Kulchigayeva M. QORAQALPOQ XALQ QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA	10
3	Charshemov J., Muratbaeva R. JANA RUXTAGÍ XALÍQ QOSÍQLARÍ.....	16
4	Charshemov J. XVI-XVII ASRLARDA BALETNING YEVROPADA KLASSIK RAQS TURI SIFATIDA RIVOJLANISHI	22
5	Abatbaeva R. QORAQALPOQ MUSIQA SAN‘ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI.....	28
6	Rasbergenova X.S. MUSIQANING INSON SALOMATLIGIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....	38
7	Abdisultanov J. QARAQALPAQ MUZÍKASINDAGÍ JANRLÍQ ÓZGESHELIKLER (QARAQALPAQ MUZÍKALÍ DRAMALARDÍN PAYDA BOLÍWÍ HÁM RAWAJLANÍWÍ).....	43
8	Charshemov J., Orazalieva G. BAROKKO DÁWIRINÍN GARMONIYASÍ.....	49
9	Zuxurov M. VIOLONCHEL SAZ ASBABINÍN KELIP SHÍGIWI, ORKESTR HÁM KAMER ANSAMBLERINDE TUTQAN ORNI.....	54
10	Uzoqov D.S. UYG‘UR MUSIQALI TEATRINING MARKAZIY OSIYODA PAYDO BO‘LISHI.....	59

KÓRKEM ÓNER

11	Mamutov P.A. KOMPOZITOR HIKMAT RAJABOV ÓMIRI HÁM DÓRETIWSHILIGI HAQQÍNDA.....	65
12	Abdikarimova I. QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASINDAGÍ BIRINSHI FLEYTA ATQARÍWSHÍSÍ.....	71
13	Sobirjonov A. O‘ZBEK OPERA XONANDALIGIGA VA MILLIY QO‘SHIQCHILIGIGA ERGASH YO‘LDOSHEVNING QO‘SHGAN HISSASI.....	76
14	Saidxonov A.S. XX ASR YANGI VENA MAKTABI IJODKORLARI TARIXNING YANGICHA KO‘RINISHI.....	80
15	Dauletbaev T.Q. QORAQALPOQ BAXSHICHILIK SAN‘ATINING RIVOJIDA G‘AYRATDIN UTEMURATOVNING MEHNATLARI....	90
16	Matimuratov S. QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍN TUTQAN ORNÍ...	95
17	Ońgarbaeva L. CHANG SAZ ÁSBABINÍN TARIYXÍ HÁM USTAZ ATQARÍWSHÍLARÍ.....	100
18	Sharipov A.Sh. XONANDALIKDA IJROCHILIK TAMOYIL VA ME‘ZONLARI.....	106

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

19	Rajabov X.J. QASHQAR RUBABI BASLANG'ISH SABAQ BARISINDAGÍ TÁLIM MASHQALALARI TIYKARINDA.....	110
20	Abatbaeva U.A. ART-PEDAGOGIKALIQ HÁM ART-TERAPEVTIKALIQ TEXNOLOGIYALAR TIYKARINDA BASLANG'ISH KLASS OQIWSHILARIN ESTETIK TÁRBIYALAW MODEL.....	118
21	Jumaniyazov O'. O'QUVCHILARGA XALQ CHOLG'ULARINI O'RGATISHDA SHARQ ALLOMALARI MUSIQIY RISOLALARINING AHAMIYATI.....	125
22	Любимцева В.С. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ – ВАЖНОЕ УСЛОВИЕ ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ.....	131
23	Matjanova M. OQIWSHILARDÍ ESTETIK TÁRBIYALAWDA ÁMELIY QOLLANIW METODLARÍ, FORMA HÁM QURALLARI...	136
24	Jumabaev A. NOTA OQIW TÁJIRIYBESINDE ATQARIWSHILIQ KÓNLIKPELERIN ÓZLESTIRIW HÁM QÁLIPLESTIRIW.....	143
25	Раджабова Н. АКТИВИЗАЦИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТОНАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ МЕЛОДИИ В МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ СОЛЬФЕДЖИО....	149
26	Mutalov D.A. YOSHLARNING MA'NAVIY SHAKLLANISHIDA MUSIQANING O'RNI.....	154

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

27	Palimbetov K.S. QARAQALPAQ XALÍQ DÁSTÚR FOLKLORÍNÍN ÚYRENILIW MÁSELESÍ.....	160
28	Bekbergenova Z. 1990-2000-JÍLLARDAĞÍ QARAQALPAQ AMATURGIYASÍ HAQQÍNDA	168
29	Marziyayev J.K. EKOLOGIK MADANIYAT VA UNI SHAKLLANTIRISH: EKOLOGIK MUAMMONI OLDINI OLISHNING BIR USULI SIFATIDA.....	176
30	Sadenova G.P. KÓRKEM SHÍĞARMALARDA EPITETTÍN QOLLANÍLÍW ÓZGESHELIKLERI HÁM USÍLLARÍ.....	181